

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINI FAOLIYATI AMARADORLIGINI OSHIRISH

*Mahsutaliyev Abdusalom Hasanovich – Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti assicenti Abdullaev Elyorbek G'olibjonovich*

Annotatsiya Ushbu maqolada sanoat korxonalari faoliyatini samaradorligining oshirishda korxonani ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va boshqa sohalaridagi xo'jalik faoliyati natijalari unga ta'sir etayotgan turli omillarning o'zaro bog'liqligiga va natijaviy ko'rsatkichga ta'siriga, shuningdek, sanoat korxonalari faoliyatini samaradorligi bevosita ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishga va mahsulotlarni bozorda xaridorgirligiga bog'likliqligi ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Korxona, ishlab – chiqarish, tijorat, resurs, bozor talabi, aylanma vositalar, xarajatlar

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida xar qanday korxonalar oldidagi asosiy vazifalardan biri ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, mahsulot tannarxini pasaytirish shu bilan birga mavjud imkoniyat va resurslardan oqilona foydalangan xolda tez o'zgaruvchan bozor sharoitlari talablariga xamoxang xolda moslashuvchanlikni shakllantirish zarur.

Korxonani ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va boshqa sohalaridagi xo'jalik faoliyati natijalari unga ta'sir etayotgan turli omillarning o'zaro bog'liqligiga va natijaviy ko'rsatkichga ta'siriga bog'liq ravishda o'zgaradi. Bu borada Yangi O'zbekistonda sanoat tarmog'ini rivojlantirish uchun 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida «aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotni– 1,6 baravar hamda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravar ko'paytirish va to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish» vazifasi belgilangan. Shuningdek strategiyaning 83 bandida keltirganidek "To'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab

chiqarish va eksport hajmini 2022-2026 yillarda oshirishbo'yicha dastur ishlab chiqish, loyihalar ro'yxatini shakllantirish, milliy brendlarni rivojlantirish va eksportini oshirish, malakali kadrlarni tayyorlash va sun'iy tolani qayta ishlash hajmini oshirish"¹ bo'yicha aniq vazifalar belgilangan.

Bizga ma'lumki sanoat korxonasi – ijtimoiy talablarni qondirish, foyda olish maqsadlarida mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va hizmatlar ko'rsatish uchun qonunlarda belgilangan tartibda tuzilgan mustaqil ho'jalik yurituvchi subektdir. U o'z faoliyatini mustaqil amalga oshiradi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lab bo'lganidan so'ng qolgan foydani tasarruf etadi. Korxonaning boshqa korxonalar, davlat, viloyat, mahalliy boshqaruv idoralari va fuqarolar bilan munosabatlari qonunchilik bilan tartibga solinadi.

Korxona faoliyatining samaradorligi mezoni yuqorida ko'rib o'tilgan maqsadlarga birgalikda erishishni ko'zda tutadi. Har qanday korxona o'zida mavjud resurslarni shunday taqsimlash va ulardan shunday foydalanishni tashkil etish kerakki, bunda qo'yilgan maqsadlarga yuqori natijalar bilan erishishni ta'minlanishi zarur.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish – korxona rahbariyatining doimiy vazifasidir. Bu vazifani yechish amaliyotda quyidagi omillar bilan bog'liq bo'ladi:

- * bozor talablariga javob beruvchi yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishda eng kam xarajatlarni bilan ishlab chiqarishning maksimal hajmini ta'minlovchi, optimal ishlab chiqarish jarayonini tanlash;
- * iste'molchilar talabini qondirishga yo'naltirilgan mahsulotni sotish va yuqori daromad (foyda) olish;
- * aylanma vositalarni tejash imkoniyatini yaratuvchi optimal ishlab chiqarish zahiralarini yaratish.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги Фармони.

Foydani maksimallashtirish korxonaning eng muhim maqsadi bo'lishiga qaramay, qolgan maqsadlar ham korxonaning ho'jalik-ishlab chiqarish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir maqsadga erishish ma'lum moliyaviy resurslarni jalb qilish bilan ta'minlanadi. Foyda korxonaning rivojlanishi uchun vositalar shakllanishining (asosiy manbai) hamda qisqa muddatli va uzoq muddatli maqsadlarga erishishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi.

Korxona faoliyati samaradorligining quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Ho'jalik faoliyati samaradorligini rivojlanish maqsadlariga erishish darajasi hamda bozorda raqobatchilik g'alabasi (bozor ulushining mahsulot sifati va foydaning oshishi) bilan aniqlanadi.

2. Alohida turdagi resurslardan foydalanish samaradorligi ho'jalik-moliyaviy faoliyat natijalari (foyda, mahsulot realizatsiyasi hajmi) bilan foydalanilayotgan resurslar (asosiy fondlar, aylanma mablag'lar, mehnat resurslari) kattaligining o'zaro solishtirilishi orqali tavsiflanadi.

3. Tovar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish samaradorligi bir birlik mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish, shuningdek, ishlab chiqarish rentabelligini oishirish bilan ifodalanadi

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida sanoat korxonalari faoliyatini samaradorligi bevosita ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishga va mahsulotlarni bozorda xaridorgirligiga bog'lik bo'ladi. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini oshirish bo'yicha imkoniyatlar – bu miqdoriy o'lchovga ega bo'lgan korxona resurslaridan foydalanishni yaxshilashdan iborat bo'ladi. Shu tufayli ishlab chiqarish jarayonlarini to'g'ri tashkil etish, xarajatlarini to'g'ri hisobga olish, asosiy vositalardan va mehnat resurslaridan to'g'ri foydalanish hamda mahsulotlar realizatsiyasini to'la ta'minlash iqtisodiy samaradorlikni ta'minlovchi muhim vazifalaridan biridir. Shunga ko'ra, biz mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora tadbirlarini belgilashda jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlarni xar tomonlama hisobga

olishimiz iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtai-nazaridan shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimiz taqozo etiladi. Bugungi kunda asosiy fondlardan va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni yaxshilash ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga, kapital mablag' sarflamay qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishga, mehnat unumdorligi va samaradorlik o'sishiga hamda mahsulot tannarxini kamaytirishga imkon yaratadi. Buning uchun uskunalardan intensiv foydalanishni yaxshilash korxonaning texnika va texnologiyasini takomillashtirish, mashinalarning ish unumini oshirish, texnik jarayonlarga sarflanadigan vaqtni qisqartirish, mutaxassis kadrlar malakasining va texnikaviy saviyasini oshirish, korxonalarni yiriklashtirish ixtisoslashtirish va hamkorlik asosida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish zarur.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotishning o'zaro aloqasini o'rganishda quyidagi vazifalarga e'tibor berish zarur.

- Mahsulot hajmi va strukturasini hisobga olgan xolda biznes reja bajarilishini nazorat kilish va dinamikasini aniklash.
- Mahsulot hajmi va realizatsiyani uzgarish sabablarini aniklash va unga ta'sir etish omillarini mikdor jihatidan aniklash.
- Ishga solinmagan ichki imkoniyatlarni aniklash va ularni mahsulot hajmini oshirishga safarbard etish.

Ishlab chiqarish tuzilmasini turkumlashdan maqsad quyidagilardir:

ishlab chiqarish vositalari va iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan tarmoqlar orasida mutanosiblik o'rnatish;

- ishlab chiqarish tuzilmasining prognoz va tendentsiyalarini ishlab chiqish;
- tarmoqlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini barqarorlashtirish;
- ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish;
- shaxsiy va ijtimoiy iste'molni o'rganish hamda aholini sanoat mahsulotlari bilan to'la ta'minlash;

- tarmoqlarda xom ashyo va resurslardan oqilona foydalanish samaradorligini oshirib borish.

Demak bugungi kunda ishlab chiqarish tuzilmasining rivojlanish asosiy vazifa hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarish sub'ektlarining ichki qurilmasini qayta qurish, mahsulot ishlab chiqarish va aholining turmush darajasini oshirish, chet el korxonalari bilan iqtisodiy hamkorlik qilish, chet el investitsiyalari hamda ilg'or texnologiyalarini sifatli sanoat mollari tayyorlashga safarbar qilish vazifalarga etibor berish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda "2022-2026 yilarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr, № 271 (7199).
3. 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 841-sonli qarori. Lex.uz.
4. A. Marshall «Organizatsiya proizvodstva. Konsentratsiya spetsializirovannykh proizvodstv v otdelnykh rayonax» Principy politicheskoy ekonomii. M.: Direkt-Media, 2007g.
5. M. Porter "Konkurensiya" / Per. s angl. M.: Izd-vo «Vilyams» 2005 g.
6. K. Ketels, M. Porter Konkurentosposobnost na raspute: napravleniya razvitiya rossiyskoy ekonomiki. M.: sSR, 2007. 114 s.
7. N.V.Zaxarova, A. V. Labudin Mirovaniye innovatsionnykh klasterov v Italii: Toskanskiy region// Upravlenicheskoye konsultirovaniye 2015. № 1. S. 63-70.
8. O.V.Nesmachnykh Klasternaya politika v strategii innovatsionnogo razvitiya Rossii i zarubejnykh stran. // Ekonomicheskoye nauki. – 2014. – № 9. – S. 162–165.N. M.

9. ye.D.Rozanov Kostenko Innovatsionnye klasterы i klasternaya politika gosudarstva: provalы rынка i provalы gosudarstva//Terra Economicus. 2014. T. 12. № 1. S. 41-52.
10. E.M. Korostyshevskaya Klasternaya politika Rossii v usloviyax razvitiya regionalnykh innovatsionnykh sistem. Jurnal Innovatsionnaya ekonomika. № 4 (246), 2019 g. St.71-81.